

ZULFIYAXONIMNI YOD ETIB...

Jo'rayeva Feruza

*Buxoro viloyati Buxoro shahar
16-umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zulfiya Isroilova betakror ijodi, adaboyotimiz xazinasidan joy olgan boy adabiy merosi, tarjimalari ochib berilgan tadbir haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Zulfiya Isroilova, vafo va sadoqat, sabr, matonat, mokofot, ijod...*

Jurnalist, tarjimon, jamoat arbobi. O'zbekiston xalq shoirasi va Mehnat Qahramoni Zulfiya Isroilova ijodi ulkan bir ummon. Undagi har bir tomchida sadoqat, vafo, tinchliksevarlik, oqibatlilik, samimiylik kabi eng oliy xislatlar mujassamdir. Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-mart kuni oddiy temirchi oilasida dunyoga kelgan edi. Shoira she'larini o'qir ekansiz, mavzular rang-barangligi, dilga yaqinlik, samimiylik, shukronalik, vafo va sadoqatning guvohi bo'lasiz. Ayniqsa, Zulfiya ijodida bahor tarannumi betakror qiyofada gavdalantirilgan.

Zulfiya va uning turmush o'rtog'i Hamid Olimjon



Shoira 19 yoshida turmush o'rtog'i Hamid Olimjondan ayrilgan bo'lsada, farzaqndlari uchun, ayollik sha'ni uchun, adabiyot uchun umrining oxirigacha o'zini bag'ishladi. Shuning uchun shoira Zulfiya xalqaro "Nilufar" va Javoharlal Neru nomidagi Davlat mukofotlari sohibasidir. Shuningdek, u Bolgariyaning „Kirill va Mefodiy“ ordeniga sazovor bo'lgan..

Bir asr avval bahorning ilk kunida dunyoga kelgan Zulfiya Isroilova betakror ijodi, adaboyotimiz xazinasidan joy olgan boy adabiy merosi, tarjimalari inson ruhiyati kuychisi ekanligidan dalolat beradi. Chunki, uning she'rlarida shukronalik,



sabr va matonat, tinchlikka va ozod mehnatga to'la tashna insonlarning hayot qo'shig'i, o'zbek xotin-qizlarining baxtiyor taqdiri qalamga olingan.

Zulfiya Isroilova Hindiston, Yugoslaviya, Shri-Lanka, Misr, Birma, Avstriya kabi mamlakatlarda bo'ldi. Uning she'rlari rus, ingliz, nemis, hind, bolgar, xitoy, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shoira rus adiblaridan Nekrasov, Lermantov, B.Inber kabi adiblarning she'rlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. "Uni Farhod der edilar" poemasida ham ayol qalbining sezgir beorom tabiatini ko'ramiz. Doston, bizningcha, hozirgacha o'z fayzini saqlab qolgan asarlardan. Doston markazida qahramonning vatanparvarlik, mardlik bilan to'la ma'naviy dunyosi tahlil etiladi. Asarning zamirida san'atkorning so'zi bilan ish bir bo'lishi kerak, degan fikr mavjud. Shoira xalqning mehridan kelib chiqib, dostonni "Uni Farhod der edilar" deb nomlaydi.

Sadoqat va vafo kuychisi Zulfiya Isroilovani xotirlab bizning maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari M.Xoliqova va F.Jo'rayevalar tomonidan "**Zulfiyaxonimni yod etib**" nomli adabiy-musiqiy kecha tashkil qilindi. Tadbirni tashkil etishdan maqsad, o'quvchilarni shoira ijodi, boy adabiy merosi va hayot yo'li bilan tanishtirishdan iborat edi. Tadbirda shoira qalamiga mansub she'rlar o'quvchilar va o'qituvchilar tomonidan yod va ifodali aytili. Shoiraning bolalik yillari, urush davrida kechirgan kunlari teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarda namoyon qilindi. Tadbirda aytilgan qo'shiq va raqslar o'zgacha joziba baxsh etdi.

Tadbirda Zulfiya Isroilovaning ijodi va uning tarbiyaviy ahamiyati ochib berilishi barchaga birday manzur bo'ldi. Ayniqsa, oramizda shunday insonlar borki, o'tgan umridan achinadi, go'yo uni orqaga qaytara olsa-yu, boshqacha yashasa. Ana shunday insonlarga shoira misralari ibrat bo'la oladi.

Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,
Yurak boyligidan qilmabman parvo.
Meni og'ushlagan hayot naq oftob,
Yangi qo'shiq talab unda har saboq.





Otashin qalb sohibi yuqoridagi so'zlari bilan tashqi go'zallikka parvo etmay, kiyimlarni kimxobu chitga ajratmagan holda yashaganini, yurak boyligi, ya'ni, mol-dunyo emas, har bir kun, quyoshning chiqishi, uni kutib olishidan quvonishini ta'kidlaydi. Bizga hayotdan yangidan-yangi saboq olishni, har daqiqadan unumli foydalanishni o'rgatadi. Shoira ruhiyatidagi bu kechinmalar bizni beixtiyor o'yga toldiradi va yaqinlarimizni, hayotni qadrlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiyaxonim baxtli ayol, baxtli shoira edi. U ona vatanimizda va dunyoning juda ko'p davrlariga fayz bag'ishlagan, mo'tabar minbarlarda turib she'r o'qiganligi uning buyukligidan dalolat beradi. Tadbirda aynan anashu g'oyalarga katta e'tibor qaratildi va o'qituvchilar mavzuni to'liq ochib berishga erishdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga taqdim etish yo'riqnomasi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-1999-yil.30- oktyabr.
- 2.Salimova Sh. Poyingizga chechaklar nisor.2001-yil
- 3.Zulfiya.Saylanma.Toshkent, Sharq, 2015-yil.

